

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025  
IJTIMOIY  
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>V.O.Gofurova</b> Environmental and socio-cultural impact of tourism .....	6
---	---

<b>M.A.Mamatov, Sh.M.Mallayeva G.R.Mannobova</b> Yangi O'zbekistonda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik siyosati amalda (Farg'ona viloyati misolida) .....	10
<b>A.A.Qambarov, M.A.Abdusalimova</b> Qo'qon adabiy muhitini rivojlantirishda ayollarning ro'li .....	14
<b>A.A.Abduvaxidov</b> Ma'rifatparvarlik fenomenining asosiy g'oyasi, vujudga kelishi va rivojlanishi .....	18
<b>I.A.Asatulloev</b> Erix Frommning ijtimoiy-ekzistensial konsepsiyasida "sog'lom jamiyat"ni shakllantirish vazifalari va istiqbollari .....	23
<b>S.S.Sodiqov</b> Yangi O'zbekistonni barpo etishda yoshlar faol ijtimoiy pozitsiyasining ahamiyati .....	27
<b>A.A.Abdusalomov</b> Jadidchilikda tarix va ta'lim masalalari.....	33
<b>M.R.Axmadova</b> Ma'naviy targ'ibot ishlarini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning o'rni .....	36
<b>Sh.A.Dolimov</b> Yangi O'zbekistonda maktab ta'limidagi modernizatsiya jarayonlarining sinkretlashuv xususiyatlari va uning ijtimoiy-falsafiy jihatlari.....	40
<b>G.M.Ravshanova</b> Axborotlashgan jamiyat rivojining innovatsion-ma'rifiy asoslari.....	43
<b>D.S.Raxmatova</b> Xoja Orif Revgariy hayoti va ma'naviy merosi .....	48
<b>N.T.Xolikov</b> Globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishining falsafiy-konseptual tahlili .....	54
<b>S.S.Mamatkadirov</b> Yoshlar mediamadaniyatini rivojlantirishda davlat axborot siyosatining ustuvor vazifalari va yo'nalishlari .....	58
<b>Sh.E.Daniyarov</b> Jadidlar harakati va madaniy uyg'onishning falsafiy asoslari.....	62
<b>U.B.Maxtumova</b> Ommaviy madaniyat va yoshlar: madaniy qadriyatlarga tahdid yoki imkoniyat.....	67
<b>O'.M.Xamroqulov</b> Yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg'ularini yuksaltirishda milliy qadriyatlarining o'rni .....	70
<b>Y.Y.Turobov</b> XVIII-XIX asr mutafakkirlari merosida axloq tamoyillari .....	75
<b>Sh.M.Xaydarova</b> Yangi O'zbekistonda axloqiy va diniy qadriyatlarni yakdil maqsadga yo'naltirishning istiqbolli vazifalari .....	82
<b>D.M.Xusanov</b> Postmodern jamiyatda axloqiy qadriyatlarining o'zgarishi dialektikasi .....	86
<b>F.M.Usarov</b> Axborotlashgan jamiyat sharoitida jamoat xavfsizligi konsepsiyasini amalga oshirishning strategik asoslari.....	90
<b>M.M.Mamasaliyev</b> O'zbekistonda o'zgalarga toqatsizlikni kuchayib borishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy muammolar tahlili.....	93



UO'K: 101.1

**GLOBALLASHUV SHAROITIDA EGOISTIK TAFAKKUR SHAKLLANISHINING  
FALSAFIY-KONSEPTUAL TAHLILI****ФИЛОСОФСКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФОРМИРОВАНИЯ  
ЭГОИСТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ****PHILOSOPHICAL AND CONCEPTUAL ANALYSIS OF THE FORMATION OF EGOISTIC  
THINKING IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION****Xolikov Nuriddin To'uchiyevich** 

Farg'ona viloyati Farg'ona tumanidagi 62-o'rta ta'lim maktabi direktor o'rinbosari

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari, globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishi falsafiy-konseptual tahlili, globallashuv sharoitida egoistik tafakkurga qarshi altruizm motivatsiyasini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Maqolada globallashuv sharoitida egoistik tafakkur shakllanishi falsafiy-konseptual tahlili o'rganiladi.*

**Аннотация**

*В статье анализируются теоретико-методологические основы исследования формирования эгоистического мышления в условиях глобализации, философско-концептуальный анализ формирования эгоистического мышления в условиях глобализации, перспективы развития альтруистической мотивации против эгоистического мышления в условиях глобализации. В статье рассматривается философско-концептуальный анализ формирования эгоистического мышления в условиях глобализации.*

**Abstract**

*This article analyzes the theoretical and methodological foundations of studying the formation of egoistic thinking in the context of globalization, the philosophical and conceptual analysis of the formation of egoistic thinking in the context of globalization, and the prospects for developing the motivation of altruism against egoistic thinking in the context of globalization. The article studies the philosophical and conceptual analysis of the formation of egoistic thinking in the context of globalization.*

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ijtimoiy-falsafiy tahlil, egoistik tafakkur, altruizm, motivatsiya, do'stlik va mehr-muhabbat tuyg'usi, altruistik tafakkur.

**Ключевые слова:** глобализация, социально-философский анализ, эгоистическое мышление, альтруизм, мотивация, дружба и любовь, альтруистическое мышление.

**Key words:** globalization, socio-philosophical analysis, egoistic thinking, altruism, motivation, friendship and love, altruistic thinking.

**KIRISH**

Bugungi kunda jahonda egoistik sifatlarni kuchayib ketishi, individualizm xarakterini yoyilishi jamiyatlar oldiga yangicha vazifalarni yuklamoqda. Insonlarda xudbinlik bilan bog'liq hususiyatlarning shakllanishi va faqat o'zini o'ylaydigan yoshlarni ulg'ayishi jarayoni bilan insoniyat oldidagi global ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bunday vaziyatda har bir jamiyatda al'truistik sifatlarga ega yoshlarni tarbiyalash va umuman olganda, ta'lim-tarbiya jarayonini isloh qilish, uni bugungi kun talablariga moslashtirish, kapitalistik munosabatlar sharoitida egoistik insonlarni shakllantiruvchi normalarni qayta ko'rib chiqish vazifalari ustuvorlik kasb etmoqda. Zero, "dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga rahna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir". Shunday ekan, O'zbekistonda ham ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish jarayonida uzluksiz ta'lim tizimiga ta'lim olivchilarga yuksak axloqiy sifatlarni ham shakllantirishga qaratilgan vazifalarni ham yuklash, jo'mardlik isfatlarini shakllantirishga qaratilgan pedagogik jarayonga alohida e'tibor qaratish vazifalari yuzaga kelmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Global o'zgarishlar sharoitida egoizm, egositik sifatlari va egoistik tafakkurni shakllanishi, rivojlanishi, namoyon bo'lish shakllari, egoistik tafakkurni ijtimoiy barqarorlik va hamjihatlikka, shaxsiy rivojlanishga ta'siri masalalari G.Avxach, M.Burke-Beltran, K.Abulxanova-Slavskaya, Sh.Amonashvili, V.Muxina, Sh.Nadirashvili, YE.Subbotskiy, O.Kont, D.Mayyers, V.Kim, A.Smit, L.Kolberg, J.Piaje, P.Ekman, D.Feldshteyn, S.Yakobson kabi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Globalashuv sharoitida egoistik tafakkurning shakllanishi zamonaning murakkab va kurashli jarayoni bilan bog'liq. Bugungi kunda odamlar orasida global aloqa va ma'lumotlar bilan almashish tezlashgani sababli, har bir shaxsning jamiyatdagi o'rni va ahamiyati o'zgarmoqda.

Egoistik tafakkur, avvalo, shaxsiy manfaatlariga asoslangan bo'lib, bu holat jamiyatning umumiy manfaatlarini inobatga olmaslikni anglatadi. Globalashuv samarasida aholining iqtisodiy farovonlikka bo'lgan intilishi ularni yagona maqsadga yo'naltirmoqda. Shu tariqa, odamlar ko'pincha o'z ixtiyorlari bilan boshqalarning ehtiyojlarini hisobga olmaydilar. Masalan, internet texnologiyalari insonlarga global miqyosda raqobatlashish imkoniyatini beradi. Bu esa egoistik xulq-atvorni rag'batlantiradi: har kim o'z foydasini o'ylab harakat qiladi. Ko'pincha, bunday raqobat jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni buzadi. Odamlar orasida ishonchsizlik va raqobat tufayli ijtimoiy izolyatsiya sezila boshlaydi.

Ikkinchidan, global iqtisodiyot insonlarning turmush tarziga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy qadriyatlarining zaiflashi esa egoizmning o'sishini rag'batlantiradi. Odamlar moliyaviy muvaffaqiyat olishni birinchi o'ranga qo'yib, boshqalarni hisobga olmaydilar.

Uchinchidan, reklama va marketing sohasidagi yangi tendensiyalar insonlarning ehtiyojlari va xohishlarini shakllantiradi. Bunday hollarda shaxsiy manfaatlarining ustunligi egoistik tafakkurni kuchaytiradi. Inson o'zining xulq-atvori uchun mas'ullik hissini yo'qotadi.

Shuningdek, globalashuv jarayonida madaniy farqlar ham o'ynaydi: ba'zi millatlarda jamoaviy qadriyatlarga ko'proq ahamiyat beriladi, boshqalarida esa individualizm ustunlik qiladi. Bunday hollarda individualizmning ortishi egoizmning o'sishiga olib kelishi mumkin.

Shu tariqa, globalashuv shart-sharoitida odamlarning egoistik tafakkuri shakllanishi ko'plab omillarga bog'liqdir: iqtisodiy vaziyatdan tortib madaniy elementlargacha. Insonlarning ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy qadriyatlari bu jarayondan ta'sirlanadilar. Kelajakda bu masala hal qilinishi uchun jamoaviy ruxi va hamkorlikka ehtiyoj seziladi. Agar biz ijtimoiy adolatni ta'minlasak va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan muhit yaratsak, egoistik tafakkur kamayadi. Natijada, globalashuv jarayoni ijobiy tomonga o'zgara oladi. Shu sababli, globalashuv sharoitida egoistik tafakkur bilan kurashish uchun barcha javobgardir. Biz hamkorlik orqali umuminsoniy taraqqiyot yo'lga chiqish mumkin.

Egoizmga qarshi kurashish uchun jamoa hissini shakllantirish muhimdir. Insonlarga birgalikda ishlash va umumiy maqsadlarga erishish uchun rag'bat berish kerak. Ma'naviy ta'limotlarga e'tibor qaratish lozim, chunki ular insonlarda o'zgalarga bo'lgan ehtiromni oshiradi. Bundan tashqari, globalashuv sharoitida ekologik masalalar ham nazardan chetda qolmasligi kerak. Insonlar faqat shaxsiy manfaatlarini uchun yashab qolmasdan, tabiatimizga ham qamchi bo'lishi lozim. Ustuvor vazifa – ekologiyani muhofaza qilish va uni kelajak avlodlarga yetkazishdir.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun barcha sohalarda madaniyatli munosabatlarni shakllantirish zarur. Aks holda, egoistik tafakkur global miqyosda salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lib qolaveradi. Jamiyatimiz har bir a'zosidan mas'uliyat talab etadi va ularning harakatlari umumiy maqsadlarga xizmat qilishi kerak. Shunday qilib, globalashuv sharoitida egoistik tafakkur bilan kurashish – bu barcha insoniyat uchun dolzarb vazifadir.

Globalashuv sharoitida egoistik tafakkurning shakllanishi iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti global miqyosida integratsiyalashgani sababli, insonlarning shaxsiy manfaatlarini ko'proq ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda, raqobat muhiti insonlarni o'z manfaatlarini ilgari surishga undaydi.

Ikkinchidan, resurslarga bo'lgan raqobat ham egoizmni oshiradi. Insonlar va tashkilotlar o'z manfaatlarini ta'minlash uchun barcha choralarini ko'rishga tayyor.

Uchinchidan, globalashuv davrida iqtisodiy imkoniyatlarning kengayishi insonlarning shaxsiy martabalarini oshirishga intiladi.

To'rtinchidan, texnologiyaning rivojlanishi ham egoistik tafakkurni shakllantiradi. Internet va jamoa tarmoqlari orqali odamlar o'z manfaatlarini reklama qilish imkoniyatiga egadir. Beshinchidan, global kompaniyalarning ta'siri mahalliy bozorlarda raqobatni kuchaytiradi va bu holda shaxsiy manfaatlariga bo'lgan e'tibor yanada ortishi mumkin.

Albatta, ushbu omillar faqatgina egoizmni rivojlantirish uchun emas, balki ijtimoiy masalalarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Insonlarning ijtimoiy mas'uliyati kamaygan sari, ularning faqat shaxsiy manfaatlariga yo'naltirilishi aniqroq bo'ladi. Shuningdek, globallashuv jarayonida boylik va resurslarni taqsimotidagi adolatsizlik ham egoizmni kuchaytiruvchi boshqa bir omildir. Shu bilan birga, globallashuv zamonida ijtimoiy sheriklik konsepsiyasi ham paydo bo'lmoqda. Bitta jamiyatda o'sib borayotgan ijtimoiy tengsizlik insonlarda mehr-oqibat hissini kamaytiradi. Egoistik tafakkur natijasida odamlar orasida ishonch kamayadi. Ushbu jarayonlarda davlat siyosati ham muhim rol o'ynaydi. Davlatlar o'z iqtisodiy manfaatlarini uchun shaxsiy manfaatlariga ustun kelishi mumkin. Ishbilarmonlik muhiti ichki raqobatni kuchaytirsa, odamlarda egoistik tuyg'ular yanada rivojlanadi.

Globallashuvning bir tomoni shundan iboratki, u egoizm va individualizmni targ'ib etadi, bu esa insonlarning ma'naviy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Egoizm — bu shaxsning o'z manfaatlarini boshqalarning manfaatlaridan ustun qo'yishidir. Globallashuv sharoitida odamlar har doim raqobatda yashashi kerak. Bu raqobat ularni o'zini o'ylab yashashga majbur qiladi. Misol uchun, ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun faqat o'z qobiliyatingizga tayangan holda harakat qilishingiz kerak bo'ladi. Bunday holatlarda odamlarning bir-biriga nisbatan mehribonligi va yordam berishi kamayadi.

Individualizm esa shaxsning o'z huquqlari va erkinliklariga keng nazar tashlaydi. Globallashuv jarayonida insonlar ijtimoiy munosabatlarda kamroq qatnashadilar va ko'proq shaxsiy manfaatlariga harakat qilishadi. Bu holat jamiyatda yagonalikni buzadi va odamlarning o'zaro hamjihatligini zaiflatadi.

Globallashuv sharoitida egoistik tafakkurni shakllantirishda bir necha ma'naviy omillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning o'sishi insonlarni boshqa odamlarga nisbatan emotsional aloqani kamaytiradi. Odamlar virtual muhitda yashashga odatlanib qoldilar, bu esa voqea-jarayonlarga nisbatan his-tuyg'ularini yo'qotishiga olib keladi. Globallashuv natijasida turli madaniyatlarining ta'siri kuchayadi. Ba'zi madaniyatlarda individualizmi rag'batlantiriladi, bu esa odamlarning o'z manfaatlarini uchun kurashishini kuchaytirishi mumkin.

Global iqtisodiy muhit raqobatni oshiradi, bu esa odamlarni ko'proq ish faoliyatiga majbur qiladi. Insonlar bir-biri bilan raqobata qilib yashaganidan keyin ularning umumiy qadriyatlarini yo'qolib boradi. Globallashuv zamonasida iqtisodiy tengsizlik oshgani sari ba'zi insonlarda "tashvish" hissi paydo bo'ladi, ular faqat o'z manfaati uchun kurashadilar. Globallashuv sharoitida egoistik tafakkurni shakllantiruvchi ma'naviy omillarni aniqlab chiqarganimizdan so'ng, ushbu jarayonning salbiy ta'sirlari haqida qaytadan o'ylashimiz zarurligini aniqlaymiz. Inson tabiati jamiyat bilan o'zaro munosabada shakllangani tufayli, biz har doim boshqa odamlarga nisbatan mehribon va yordamchi bo'lishimiz kerak ekanligini esdan chiqarmasligimiz lozim. Globallashuv sharoitida egoistik tafakkurni shakllantiruvchi individualizm – zamonning muhim ijtimoiy va madaniy fenomeni hisoblanadi. Ushbu holatda insonlarning shaxsiy manfaatlarini, ko'pincha, umumiy manfaatlardan ustun kelmoqda. Bunga global kommunikatsiyalar va texnologiyalar ta'sir ko'rsatmoqda, chunki ular insonlarga mustaqillik va o'zini bildirish imkonini beradi.

### XULOSA

Individualizmning kuchayishi, jamiyatda raqobat muhitini yaratadi. Insonlar o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha foyda-ko'rib turish asosida quriladi. Bu esa empatiya va hamjihatlik hissini zaiflashtiradi. Globallashuv kontekstida, insonlar o'zini izolyatsiya qilishga mo'ljallangan, chunki ular o'z shaxsiy manfaatlarini uchun kurashishga intilmoqdalar. Davrning ayrim ijobiy tomonlari ham bor: individualizm shaxsiy hususiyatlarni rivojlantirish uchun imkoniyat yaratadi. Inson o'z istaklari va maqsadlariga erishish uchun katta erkinlikka ega bo'ladi. Ammo bu protsess jamiyatning umumiy taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shunday ekan, individualizmning globallashuv sharoitidagi roli murakkab va ziddiyatlidir. Undan foydalanganda ehtiyot bo'lish zarur: shaxsiy manfaatlarini himoya qilish bilan birga, jamiyat manfaatlarini ham inobatga olish kerak. Aynan shu tarzda jamiyat barqarorligi saqlanadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017, 1-жилд, -Б. 27.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. -Toshkent-2010.
3. Муздыбаев К. // Социол. исслед. 1992. №11. Б.94—101
4. Столяренко, Л.Д., Самыгин, С.И. Психология и педагогика вопросах и ответах. Ростов – на –Дону: Феникс, 2009. 157-б
5. Фромм, Э. Душа человека. Москва.: АСТ-ЛТД, 1998. 8-б.